

**NATYURMORT ORQALI FAZOVIY TAFAKKURNI
RIVOJLANTIRISHDA KREATIV METODLAR VA TARAQQIYOT
STRATEGIYASI NUQTAYI NAZARIDAN TAHLIL**

Xolmurodova Dilnoza

*Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti Tasviriy san'at
yo'nalishi 1-bosqich magistranti*

Annotatsiya: *Mazkur maqolada natyurmort janri vositasida fazoviy tafakkurni rivojlantirishning nazariy asoslari va amaliy yondashuvlari, shuningdek, kreativ metodikalar orqali oliy ta'lim talabalari tafakkur doirasini kengaytirish yo'llari yoritiladi. Shuningdek, bu yondashuv O'zbekiston Respublikasining 2030-yilgacha mo'ljallangan Taraqqiyot strategiyasida belgilangan kreativ iqtisodiyot, raqamli ta'lim va madaniy merosni saqlash tamoyillari bilan uyg'unlashgan holda tahlil qilinadi. O'zbekistonning 2030-yilgacha bo'lgan Taraqqiyot strategiyasida belgilangan "madaniyat va san'at sohalarini rivojlantirish", "ijodiy tafakkur va innovatsion ta'lim" tamoyillari kontekstida natyurmort kompozitsiyasi orqali estetik dunyoqarash va milliy san'at qadriyatlarni singdirishning ahamiyati asoslab beriladi.*

Kalit so'zlar: *natyurmort, fazoviy tafakkur, tasviriy san'at, kreativ metodlar, vizual idrok, kompozitsiya, taraqqiyot strategiyasi, innovatsion ta'lim, estetik tarbiya.*

**РАЗВИТИЕ ПРОСТРАНСТВЕННОГО МЫШЛЕНИЯ ЧЕРЕЗ
НАТЮРМОРТОВ: АНАЛИЗ С ТОЧКИ ЗРЕНИЯ ТВОРЧЕСКИХ
МЕТОДОВ И СТРАТЕГИИ РАЗВИТИЯ**

Аннотация: В данной статье рассматриваются теоретические основы и практические подходы к развитию пространственного мышления через жанр натюрморта, а также пути расширения кругозора студентов высших учебных заведений посредством творческих методов. Данный подход также анализируется во взаимосвязи с принципами креативной экономики, цифрового образования, сохранения культурного наследия, изложенными в Стратегии развития Республики Узбекистан до 2030 года. В контексте принципов

«развития культуры и искусства», «творческого мышления и инновационного образования», изложенных в Стратегии развития Узбекистана до 2030 года, обосновывается важность привития эстетического мировоззрения и национальных художественных ценностей посредством композиции натюрморта.

Ключевые слова: натюрморт, пространственное мышление, изобразительное искусство, творческие методы, зрительное восприятие, композиция, стратегия развития, инновационное образование, эстетическое воспитание.

DEVELOPMENT OF SPATIAL THINKING THROUGH STILL LIFE: ANALYSIS FROM THE POINT OF VIEW OF CREATIVE METHODS AND DEVELOPMENT STRATEGY

Annotation: This article discusses the theoretical foundations and practical approaches to the development of spatial thinking through the still life genre, as well as ways to expand the thinking horizons of higher education students through creative methods. This approach is also analyzed in conjunction with the principles of creative economy, digital education, and preservation of cultural heritage, set forth in the Development Strategy of the Republic of Uzbekistan until 2030. In the context of the principles of "development of culture and art", "creative thinking and innovative education" set forth in the Development Strategy of Uzbekistan until 2030, the importance of instilling an aesthetic worldview and national artistic values through still life composition is substantiated.

Keywords: still life, spatial thinking, fine arts, creative methods, visual perception, composition, development strategy, innovative education, aesthetic education.

KIRISH

Zamonaviy oliy ta'lif tizimi oldida turgan asosiy vazifalardan biri – ijodiy fikrlovchi, estetik dunyoqarashga ega, madaniy identitetini anglagan shaxslarni shakllantirishdir. Tasviriy san'at, xususan, natyurmort janrini o'rgatish bu yo'lda muhim vosita sifatida xizmat qiladi. O'zbekiston Respublikasining 2022–2026-

yillarga mo'ljallangan Taraqqiyot strategiyasida belgilangan "kreativ iqtisodiyot" va "san'at orqali ta'lim" tamoyillari dolzarb ahamiyatga ega hisoblanadi. Natyurmort (fransuzcha nature morte – "jonsiz tabiat") – bu jonli bo'limgan predmetlarning badiiy kompozitsiyasi bo'lib, insonning fazoviy tafakkurini, vizual idrokini va ranglar muvozanatini rivojlantiruvchi kuchli vositadir. XXI asrning ta'lim tizimi endilikda nafaqat faktologik bilimlarni uzatishga, balki ijodiy tafakkur, tahliliy yondashuv va muammoli vaziyatlarni echish qobiliyatini shakllantirishga yo'naltirilmoqda. Ayniqsa, tasviriy san'at fanlarida bu yondashuv fazoviy tafakkurni rivojlantirish orqali namoyon bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasi Taraqqiyot strategiyasining kreativ iqtisodiyot, raqamli transformatsiya, va san'at ta'limini rivojlantirishga oid bandlari bu jarayonni davlat darajasida qo'llab-quvvatlamоqda. Kreativ texnologiyalar – bu innovatsion metodlar asosida yaratuvchanlikni rag'batlantiruvchi, mustaqil fikrlash va amaliy faoliyatni uyg'unlashtiruvchi o'qitish vositalaridir. Vizuallashtirilgan interaktiv darslar (multimedia taqdimotlar, AR/VR texnologiyalari yordamida virtual natyurmortlar ishlash); muammoli vaziyat– talabalar o'zлari kompozitsiya tuzib, muammoni badiiy vositalar bilan hal etadi, didaktik o'yinlar va tanlovlар – natyurmortda mavjud mavzular bo'yicha raqobatga asoslangan ijodiy ishlar. XXI asrning ta'lim tizimi endilikda nafaqat faktologik bilimlarni uzatishga, balki ijodiy tafakkur, tahliliy yondashuv va muammoli vaziyatlarni echish qibiliyatini shakllantirishga yo'naltirilmoqda. Ayniqsa, tasviriy san'at fanlarida bu yondashuv fazoviy tafakkurni rivojlantirish orqali namoyon bo'ladi. Natyurmort — bu jarayonda eng samarali vositalardan biri hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi Taraqqiyot strategiyasining kreativ iqtisodiyot, raqamli transformatsiya, va san'at ta'limini rivojlantirishga oid bandlari bu jarayonni davlat darajasida qo'llab-quvvatlamоqda.

METADALOGIYA

1. Muammoli vaziyatga asoslangan metod

Asosi: Talabaga aniq yechimi bo'limgan vaziyat taqdim etiladi.

Masalan: "Agar yorug'lik faqat pastdan tushsa, shisha va mato predmetlar qanday tasvirlanadi?"

Bu orqali talabada tahliliy va eksperimental yondashuv shakllanadi.

2. Interfaol loyiha yondashuvi

Asosi: Talabalar kichik guruhlarda mavzuga oid natyurmort yaratib, yakunida taqdimot qilishadi.

Qo'shilishi mumkin bo'lgan fanlar: biologiya (mevalar tuzilishi), tarix (milliy qadriyatlar), informatika.

3. Raqamli natyurmort

Vositalar: Procreate, Photoshop, Blender yoki boshqa 3D/2D grafik dasturlar.

Afzalliklari: Perspektiva va nur bilan eksperiment qilish oson, 3D model asosida mashg'ulotlar olib borish mumkin. Talabada raqamli san'at ko'nikmalari rivojlanadi.

4. Sensorli tasvirlar

Asosi: Turli materialdan tayyorlangan predmetlar (shisha, mato, yog'och, teri) yordamida faktura farqini ko'rsatish.

Maqsad: Talabani chuqur ko'rish, sezish va yuzalarning xarakterini aniqlashga o'rgatish.

ADABIYOTLAR TAXLILI

Portfolioga asoslangan baholash – har bir talabaning shaxsiy rivojlanish yo'li qayd etiladi, STEAM-integratsiya – san'at (Art) boshqa fanlar, xususan, texnologiya va matematika bilan uyg'unlashtiriladi. O'zbekistonning "2022–2026-yillarda taraqqiyot strategiyasi"da quyidagi yo'nalishlar san'at ta'limi bilan bevosita bog'liq:

1-Kreativ iqtisodiyotni rivojlantirish – san'at sohasini innovatsion raqamli platformalar asosida kengaytirish;

2-Ijtimoiy faollik va madaniy ongni shakllantirish – milliy san'at merosini o'rganish orqali;

3-Yoshlarni kasbiy-ijodiy yo'nalishlarga yo'naltirish – o'quv dasturlariga san'atga oid amaliy mashg'ulotlarni keng kiritish orqali.

Ushbu strategik yo'nalishlar natyurmort san'atini chuqur o'rganishni va bu jarayonda kreativ pedagogik yondashuvlarni tatbiq qilishni taqozo etadi. Bundan tashqari biz natyurmort orqali milliy qadriyatlarni vizual ifodalashimiz ham mumkin. Masalan an'anaviy predmetlar (do'ppi, sopol idishlar, mevalar) orqali milliylikni aks ettirish, raqamli san'at va raqamli natyurmort ishlari orqali zamонавиy va an'anaviy obrazlar uyg'unligi, mahalliy maktablar (Buxoro, Farg'ona, Toshkent maktabi) estetikasidan ilhomlanish. Bu yondashuv madaniy identitetni saqlash va uni yangi avlodlar ongiga singdirish imkonini beradi.

Taraqqiyot strategiyasi bilan bog'liq dolzarb yo'nalishlar

1-Madaniy merosni saqlash: Natyurmortlarda o'zbek milliy an'analariga oid predmetlardan foydalanish — do'ppi, do'koncha, pichoq, ipak ro'mol va h.k.

2- Raqamli iqtisodiyot: Yosh avlodni raqamli grafikada ishlashga o'rgatish orqali zamonaviy ijodiy kasblarga tayyorlash (3D artist, dizayner, animator).

3-Innovatsion pedagogika: STEAM (Science, Technology, Engineering, Art, Mathematics) integratsiyasi asosida o'rgatish.

Fazoviy tafakkur — bu insonning uch o'lchamli fazodagi obyektlar o'rtasidagi munosabatlarni idrok etish, tasavvur qilish va modellashtirish qobiliyatidir. Bu ko'nikma: Dizayn, arxitektura, muhandislik va san'at sohalarida muhim rol o'ynaydi. O'quvchilarda kreativ fikrlash, muammoli vaziyatlarga yondashuv va vizual idrokni kuchaytiradi. PISA (International Student Assessment) tadqiqotlariga ko'ra, vizual-tafakkur salohiyati yuqori bo'lgan o'quvchilar boshqa fanlarda ham muvaffaqiyatga erishishga moyil bo'ladi.

XULOSA

Oliy ta'lim tizimida natyurmort janrini kreativ pedagogik texnologiyalar asosida o'rgatish – bu nafaqat badiiy mahoratni rivojlantirish, balki estetik ong, ijodiy tafakkur va milliy madaniyatga hurmat ruhini shakllantirish vositasidir. O'zbekiston taraqqiyot strategiyasidagi asosiy tamoyillar – innovatsiya, kreativlik va milliylikni uyg'unlashtirish orqali san'at ta'limini yanada takomillashtirishga zamin yaratadi. XXI asrning ta'lim tizimi endilikda nafaqat faktologik bilimlarni uzatishga, balki ijodiy tafakkur, tahliliy yondashuv va muammoli vaziyatlarni echish qobiliyatini shakllantirishga yo'naltirilmoqda. Ayniqsa, tasviriy san'at fanlarida bu yondashuv fazoviy tafakkurni rivojlantirish orqali namoyon bo'ladi. Natyurmort bu jarayonda eng samarali vositalardan biri hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi Taraqqiyot strategiyasining kreativ iqtisodiyot, raqamli transformatsiya, va san'at ta'limini rivojlantirishga oid bandlari bu jarayonni davlat darajasida qo'llab-quvvatlamoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekiston Taraqqiyot Strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni, 2022-yil 28-yanvar.

2.Dewey, J. (1934). Art as Experience. New York: Minton, Balch & Company.

3.Gardner, H. (1983). Frames of Mind: The Theory of Multiple Intelligences. Basic Books.

4.Arnheim, R. (1974). Art and Visual Perception: A Psychology of the Creative Eye. University of California Press.

5.Davlatov, M., & To'xtayeva, D. (2022). “Tasviriy san'at ta'limida zamonaviy metodikalar”. – Toshkent: Ijod Press.

6.Turdaliyeva, N. (2021). “Ijodiy ta'limda natyurmort janrining psixologik aspektlari”. // Pedagogika va san'at, №4.